



## THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PHILOSOPHY OF MIND UPLOADING IN THE CONTEXT OF THE TURING TEST

**Zokirjon Nematov**

*Trainee Lecturer, Department of Philosophy*

*National University of Uzbekistan*

[nematovzokirjonnn@gmail.com](mailto:nematovzokirjonnn@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekiston*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Alan Turing, Turing Test, artificial intelligence, thinking machine, digital computer, philosophy of mind, mind uploading, functionalism, subjective experience, qualia, David Chalmers, personal identity, digital consciousness.

**Received:** 25.12.25

**Accepted:** 26.12.25

**Published:** 27.12.25

**Abstract:** This article analyzes the ideas of thinking machines proposed by Alan Turing and the concept of the Turing Test within the context of contemporary artificial intelligence and the philosophy of mind uploading. The study examines the methodological foundations of the Turing Test and argues that evaluating machine intelligence through external behavior enables an understanding of consciousness as a set of functional processes. This approach is comparatively analyzed alongside David Chalmers' distinction between the "easy problems" and the "hard problem" of consciousness.

## TURING TESTI KONTEKSTIDA ONG YUKLASH FALSAFASINING NAZARIY ASOSLARI

**Zokirjon Ne'matov**

*O'zMU "Falsafa" kafedrasi stajyor - o'qituvchisi*

[nematovzokirjonnn@gmail.com](mailto:nematovzokirjonnn@gmail.com)

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Alan Turing, Turing testi, sun'iy intellekt, fikrlovchi mashina, raqamli kompyuter, ong falsafasi, ong yuklash (mind uploading), funksionalizm, subyektiv tajriba, qualia, David Chalmers, shaxsiy identiklik, raqamli ong, postgumanizm.

**Annotatsiy:** Mazkur maqolada Alan Turing tomonidan ilgari surilgan fikrlovchi mashinalar haqidagi g'oyalar va Turing testi konsepsiyasi zamonaviy sun'iy intellekt hamda ong yuklash falsafasi kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Turing testing metodologik asoslari ko'rib chiqilib, mashina intellektini tashqi xatti-harakatlar orqali

baholash yondashuvi ongni funksional jarayonlar majmui sifatida talqin qilish imkonini berishi asoslab beriladi. Ushbu yondashuv David Chalmers tomonidan ilgari surilgan ong muammosining “oson muammolar” va “murakkab muammo”ga ajratilishi bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИЛОСОФИИ ЗАГРУЗКИ СОЗНАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ТЕСТА ТЬЮРИНГА

**Зокиржон Нейматов**

*Стажёр-преподаватель кафедры «Философия»*

*Национального университета Узбекистана*

[nematovzokirjonnn@gmail.com](mailto:nematovzokirjonnn@gmail.com)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Алан Тьюринг, тест Тьюринга, искусственный интеллект, мыслящая машина, цифровой компьютер, философия сознания, загрузка сознания, функционализм, субъективный опыт, Дэвид Чалмерс, личная идентичность, цифровое сознание.

**Аннотация:** В данной статье анализируются идеи мыслящих машин, выдвинутые Аланом Тьюрингом, а также концепция теста Тьюринга в контексте современного искусственного интеллекта и философии загрузки сознания. В исследовании рассматриваются методологические основания теста Тьюринга и обосновывается, что оценка машинного интеллекта через внешнее поведение позволяет трактовать сознание как совокупность функциональных процессов. Данный подход сопоставляется с концепцией Дэвида Чалмерса о разделении проблемы сознания на «лёгкие проблемы» и «трудную проблему».

**Kirish.** So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson ongining tabiati, chegaralari va texnologik muhitda qayta namoyon bo‘lishi haqidagi falsafiy savollarni yana-da dolzarb holga keltirmoqda. Ayniqsa, mashinalarning inson bilan muloqotda tabiiy tilga yaqin javoblar bera olishi, mustaqil qaror qabul qilayotgandek ko‘rinishi va murakkab intellektual vazifalarni bajarishi ongning faqat biologik miya bilan bog‘liqligi haqidagi an‘anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda.

Mazkur muhokamalarning nazariy asosi XX asr o‘rtalarida Alan Turing tomonidan taklif etilgan “taqlid o‘yini” yoki Turing testi bilan bog‘liq. Turing yondashuvida mashinaning fikrlashi uning ichki holatlari yoki subyektiv tajribasi orqali emas, balki tashqi xatti-harakatlari, ya‘ni inson bilan muloqot jarayonida beradigan javoblari orqali baholanadi. Ushbu yondashuv

ongni funksional jarayonlar majmui sifatida talqin qilishga imkon beradi va hisoblash tizimlari yordamida intellektual faoliyatni modellashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

Biroq Turing testi mashinaning intellektual qobiliyatlarini aniqlashda muhim metodologik vosita bo'lsa-da, u mashinaning haqiqiy ongga ega yoki emasligi masalasini hal qilib bera olmaydi. Aynan shu nuqtada zamonaviy ong falsafasi, xususan David Chalmers tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chalmers ong muammosini funksional jihatlar bilan bog'liq "oson muammolar" va subyektiv tajribaga taalluqli "murakkab muammo"ga ajratadi. Turing testi birinchi turdagi muammolarni qamrab oladi, biroq ikkinchi turdagi muammoni chetlab o'tadi.

Ushbu nazariy tafovut ong yuklash falsafasini tahlil qilishda markaziy o'rin egallaydi. Agar inson ongini raqamli muhitga ko'chirish imkoniyati mavjud bo'lsa, unda ko'chirilgan tizim faqat inson fikrlash jarayonini taqlid qiladimi yoki haqiqiy subyektiv tajribaga ham ega bo'ladimi, degan savol yuzaga keladi. Bu savol shaxsiy identiklik, ongning davomiyligi va raqamli ongning ontologik maqomi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu sababli mazkur maqolaning asosiy maqsadi Turing testi, Chalmersning ong haqidagi nazariyasi va ong yuklash falsafasi o'rtasidagi konseptual bog'liqlikni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda sun'iy intellektning funksional muvaffaqiyati va subyektiv ong muammosi o'rtasidagi tafovut ochib beriladi hamda raqamli ong va raqamli inson tushunchalarining falsafiy asoslari muhokama qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fikrlovchi mashinalar muammosi falsafiy muhokamaga Alan Turing tomonidan kiritilgan bo'lib, uning 1950-yilda e'lon qilingan "Computing Machinery and Intelligence" maqolasi sun'iy intellektni baholashning metodologik asoslarini belgilab berdi. Turing tomonidan taklif etilgan Turing testi mashinaning fikrlash qobiliyatini uning ichki holatlari orqali emas, balki tashqi xatti-harakatlari va muloqot jarayonidagi funksional o'xshashligi asosida aniqlashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ongni funksional jarayonlar majmui sifatida talqin qilish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ong falsafasida Turing testining chegaralari David Chalmers tomonidan ishlab chiqilgan ong muammosi konsepsiyasi doirasida tahlil qilinadi. Chalmers ong muammosini "oson muammolar" va "murakkab muammo"ga ajratib, Turing testi orqali ongning funksional jihatlarini baholanishini, biroq subyektiv tajriba va qualia masalasi ushbu test doirasidan tashqarida qolishini ta'kidlaydi. Shu sababli, mashinaning inson kabi muloqot qila olishi uning haqiqiy ongga egaligini to'liq isbotlamaydi.

Bundan tashqari, Jan Bodriyar tomonidan ilgari surilgan simulyatsiya nazariyasi sun'iy intellekt va raqamli ong masalasiga tanqidiy nuqtai nazar taklif etadi. Bodriyar fikriga ko'ra,

sun'iy intellekt inson ongining ontologik mohiyatini emas, balki uning belgilarini va tashqi ko'rinishlarini takrorlaydi. Natijada, Turing testidan muvaffaqiyatli o'tgan raqamli tizimlar chin ong emas, balki simulyakr sifatida namoyon bo'lib, giperreallik holatini yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, Turing, Chalmers va Bodriyar qarashlari sun'iy intellektni baholashda funksional yondashuv, ongning subyektiv tabiati va simulyatsiya muammosi o'rtasidagi nazariy ziddiyatlarni ochib beradi. Bu esa ong yuklash va raqamli inson tushunchalarini falsafiy jihatdan chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqlilik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida Turing testi va ong yuklash falsafasi kontekstida fikrlovchi mashinalar va raqamli intellektning funksional imkoniyatlari tahlil qilindi. Alan Turingning yondashuvi mashinaning fikrlash qobiliyatini uning tashqi xatti-harakatlari orqali baholashga asoslangan bo'lib, ushbu metodologiya ongni funksional jarayonlar majmui sifatida ko'rish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari Turing testining sun'iy intellektning funksional jihatlarini baholashda samarali ekanligini, ammo subyektiv tajriba va qualia masalasini hal qila olmasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil davomida mashina intellekti va inson ongining funksional jihatlarini solishtirildi, shaxsiy identiklik va ongni raqamli muhitga ko'chirish imkoniyati falsafiy jihatdan baholandi. Ushbu yondashuv Turing testi, Chalmersning "oson muammolar" va "murakkab muammo" konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirildi va ong yuklash g'oyasining nazariy asoslari mustahkamlandi.

"Mashinalar ham fikrlay oladimi?" – bu ingliz matematigi, faylasuf Alan Turing (1912-1954) tomonidan berilgan va zamonaviy komputer texnologiyalarini yaratishga turtki bergan savol edi.

Alan Turing Kembirdj universiteti bitiruvchisi, Prinston Universiteti doktoranti hisoblanib yoshlik yillaridan kriptografiya bilan shug'ullanib kelgan. [1] Ikkinchi jahon urushi yillarida nemis harbiylari tomonidan qo'llanilgan "Enigma" mashinasi yordamida shifrlangan xabarlarni ochish, ulardagi ma'lumotlarni o'qish urush taqdirini hal qiluvchi masalalardan biri bo'lib qoladi. Nemis muhandis olimlari ixtiro qilgan "Enigma" nisbatan murakkab texnika bo'lib, urush davomida German Armiyasi, Havo kuchlari, Flotining bir bo'linmadan boshqa bo'linmaga uzatadigan buyruqlari, ko'rsatma va ma'lumotlari ushbu qurilma yordamida shifrlangan va faqat ushbu mashina nusxasi yordamida shifrdan ochilishi mumkin bo'lgan.[2] Shifrni ochish uchun

ham mashinaning o'zi yetarli bo'lmay maxsus parol so'zlar talab qilinishi shifrni ochish muammosini deyarli imkonsiz holatga olib kelgan. Chunki buning uchun parol so'zlarning kunlik almashtirilib turilishi va 158 kvintilliondan ortiq turli kombinatsiyalar mavjud ekanligi jarayonni inson tomonidan amalga oshirilishi imkoniyatini yo'qqa chiqardi.[3] Sababi, bir insonning har bir kombinatsiyani sinovdan o'tkazishi uchun ketadigan vaqt 51 trillion yildan oshiqroq deb hisoblangan.[4] Parol so'zlarning har 24 soatda o'zgartirilishi esa jarayonni har kuni qaytadan boshlashni talab qilar edi.

Ayni muammo Britaniya hukumatini tashvishga solgani holda "Hut 8" nomli kriptograflar guruhini tuzishga majbur qildi. Ushbu guruhning yetakchisi sifatida Alan Turing nemis shifrlash mashinasiga qarshi tura oluvchi "fikrlovchi mashina" yaratishni o'ziga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Avvalo, vazifasi shifrlarni ochish va turli kombinatsiyalarni bir vaqtda sinash orqali "Enigma" mashinasida yozilgan xabarni o'qish bo'lgan bunday mashina yana boshqa funksiyalarga ega bo'lishi, kelajakda o'ziga yuklatilgan buyruqlarni mustaqil ravishda bajara olishi ko'zda tutilgan edi. Turing yaratgan "Turing mashinasi" mana shu mashinalar, yoki biz bugungi kunda nomlaydigan komputerlarning dastlabki prototipi bo'lib, algoritmik amallar yordamida buyruqlar bajarish funksiyasiga ega bo'lgan.

Turing mashinasining o'ziga berilgan qoidalar tartibi bo'yicha shifrlarni ochib "Enigma" mashinasidagi parol so'zlar topish vaqtini 20 daqiqadan bir necha soatgacha qisqartirgan.[5] Ushbu yutuq "Uchlar ittifoqi" qo'shinlariga nemis floti xabarlarini shifrdan ochish orqali ularning harbiy kemalarining Atlantik okeanidagi aniq lokatsiyalari haqida ma'lumot to'plashga imkon beradi. "Turing mashinasi" ikkinchi jahon urushi taqdirini xal qilishda muhim kashfiyotlardan biri bo'lsada, uning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar harbiy maqsadlarda bir necha o'n yillar sir tutilgan.

"Turing mashinasi" Alan Turing yaratishni istagan yoki kelajakda yaratilishini kutgan mashinalarning ilk prototipi hisoblanadi. Turingga ushbu mashinani yaratishda 1930-yillarda kvant fizikasi bilan yaqindan tanishganligi yordam bergan deya ayta olamiz. Bu bilimlar unga Abakus singari hisoblash texnikalarining funksiyalarini kvant darajasida kichraytirish orqali komputer (inglizcha hisoblagich) yaratish mumkinligi g'oyasi bergan deya ayta olamiz.

Uning fikriga ko'ra mashinalar odatda Xotira, Amallarni bajaruvchi qism va Nazorat qiluvchi qismlardan iborat bo'ladi. Turing texnika takomillashuvi natijasida yaratilishini bashorat qilgan mashinaning ishlash tartibi muallifning o'zi ta'kidlaganidek kiritilgan buyruqlarni algoritmik tartibda bajarish orqali amalga oshadi. Buyruqlar to'plami "buyruqlar jadvali" deb nomlanib, unda amallar tartib bilan bajariladi.

Bu amaliyotni oddiy qilib tushuntirish uchun qo'llanilgan misolga ko'ra ; Ona o'g'li Tomning maktabga ketayotganida kosibning oldiga borib poyabzal tayyor bo'lgani yoki yo'qligini tekshirishi uchun buyruq beradi. Onada ikki yo'l bor , birinchisi har kuni Tomga kosibning oldiga borishi kerakligini eslatib turish, ikkinchisi, uy eshigiga eslatma yozilgan qog'oz osib qo'yish va agar poyabzalni olib keladigan bo'lsa qog'ozni olib tashlashni buyurish.[6]

Turing so'z yuritgan mashina ham xuddi shu tartibda ishlovchi va muayyan algoritmik operatsiyalarni bajaruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bunday turdagi qurilmalarni shunchaki "mashina" deb ta'riflash ularni mexanik qolip doirasida cheklashga olib keladi va ularning funksional hamda hisoblash xususiyatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Shu bois, Turing nazarda tutgan bunday tizimlarni "raqamli kompyuterlar" sifatida atash ilmiy va nazariy jihatdan ancha mos keladi.

Alan Turing 1950-yilda yozilgan "Computing Machinery and Intelligence" (Hisoblash mashinalari va Intellekt) nomli maqolasida ushbu turdagi texnologiyalar kelajagi bilan bog'liq fikrlari bilan o'rtoqlashadi.[6] Raqamli komputerlar bilan bog'liq bir xususiyat shundaki, unga buyruq yoki ko'rsatmalar cheklangan holda, inson tomonidan berilishi sababli uning barcha harakatlarini oldindan bashorat qilish mumkin. Lekin, deterministik nazariya tarafdorlari inson ongini sabab-oqibat kategoriyalari asosida tavsiflanib bo'lishi mumkinligi g'oyasini ilgari surgan holda, mashinalar amaliyotni buyruqlar asosida amalga oshirishi masalasi ularning inson kabi intellektga ega bo'lmasligi ma'nosini anglatmasligini bildiradi.

Turingga ko'ra bunday fikrlovchi mashinalarni "elektron komputer"(elektron hisoblagich) yoki "raqamli komputer"(raqamli hisoblagich) deb nomlash to'g'riroq bo'ladi.[6] Turing uchun fikrlovchi komputerlar yaratish faqatgina injineriya muammosi bo'lib elektron jihozlardagi tezlik va xotira kabi masalalar xal qilinishi bilan biz fikrlovchi komputerlarga ega bo'lamiz. Turing bu hodisaning XX asr oxiriga borib amalga oshishi haqida o'z ilmiy bashoratini amalga oshiradi.[6]

Navbatdagi muhim masala shundan iboratki, kompyuterning haqiqatan ham fikrlovchi intellektga ega yoki yo'qligini qanday aniqlash mumkin? Boshqacha aytganda, inson intellekti bilan oddiy mashinaning hisoblash jarayoni o'rtasidagi chegara qayerda joylashgan va aynan qaysi mezonlar asosida biz oddiy kompyuter bilan fikrlovchi kompyuter o'rtasidagi farqni ajrata olamiz? Ushbu savol Turing tomonidan taklif etilgan yondashuvda ontologik ta'rifdan ko'ra epistemologik mezonga aylantiriladi: ya'ni mashinaning ichki tuzilmasi yoki "ongga ega yoki emasligi" emas, balki uning tashqi xatti-harakatlari va kommunikativ imkoniyatlari baholanadi.

Shunday qilib, inson va mashina o'rtasidagi farq metafizik darajada emas, balki kuzatiladigan muloqot va funksionallik darajasida belgilanishi mumkin.

Fikrlash qobiliyati faqatgina insonlarga xos xususiyat deb tushunilgani sababli kompyuterlar ish yuritish jarayoni Turing tomonidan "Taqlid" deb atalib qanday turdagi mashinalarni intellektual, fikrlovchi degan maqomga loyiqqligini aniqlash uchun o'tkaziluvchi test ham mos ravishda "Taqlid o'yinlari" deb nomlanadi. Bu test "Turing testi" deb ham atalib mashinalardagi fikrlash qobiliyatining intellektuallik darajasini sinash uchun o'ylab topilgan. Turing bu uchun o'zining "Turing testi" deb nomlangan maxsus testini ishlab chiqadi.

Testda yoki Alan Turingning fikricha "o'yin"da uch tomon ishtirok etib ulardan biri inson, ikkinchisi fikrlovchi mashina va uchinchi tomon hakamdan iborat bo'ladi. Testning maqsadi mashina fikrlash darajasini inson fikrlashi bilan taqqoslash hisoblanadi. Test borish tartibiga ko'ra ishtirokchilar bir-biridan alohida xonalarga joylashadi. Inson va mashina hakam bilan yozishma orqali muloqot qiladi, hakam esa qaysi javob insonnikini, qaysi javob mashinanikini aniqlashga harakat qiladi. Muloqotning faqat yozma shaklda bo'lishi, yozma bo'lganda ham bosma harflar bilan yozilgan bo'lishi ma'qul ko'rib bu hakamlarga faqatgina fikrlar izchilligi me'zoniga tayanib qaror chiqarishga zamin yaratadi. Ayni sharoitlarda hakam kompyuterning javobini inson javobidan ajrata olmasa, bu mashina inson kabi fikrlay oladi, degan xulosaga kelinadi.

"Turing testi" o'ziga xoslik kasb etib, unda Inson , ong, fikrlash qobiliyati kabi falsafiy atamalarga ta'rif berish orqali emas balki, ularni baholash orqali mashinalarini fikrlash darajasini aniqlashga harakat qilinadi. Bu o'z navbatida ongning tabiatiga doir davomiy falsafiy munozaralarni oldini olib muammoga yangicha yondashuv hisoblanadi.

1990-yildan boshlab tashkil etilayotgan kompyuterlar fikrlash qobiliyatini tekshirishga mo'ljallangan "The Loebner Prize" musobaqasi ham "Turing test"i asosida o'tkazilib, unda har yili hakamlar guruhi elektron mashinalar, kompyuter texnologiyalarining inson intellektiga o'xshashligi darajasini baholaydilar. Testdan muvaffaqiyatli o'tish uchun kompyuter yoki botlar kamida 50 foizdan ortiq hakamlarni inson ekanligiga ishontirishi kerak bo'ladi. Test 5 daqiqa davom etib ishtirokchilardan savollarga yozma tarzda javob olinadi. G'oliblar hakamlar jamoasi tomonidan aniqlanib, oltin , kumush va bronza medallari va mos tarzda 100 ming 25 ming va 3 ming AQSh dollari miqdorida mukofotlanadilar.[7] Kumush medal "Turing test"idan muvaffaqiyatli o'tgan ishtirokchi kompyuter yoki robotga berilsa, Oltin va Grand Pri medali va sovrinlari "Mutloq Turing test"idan o'tgan ishtirokchilarga nasib qiladi. "Mutloq Turing testi"da shartlar qatoriga ovoz orqali ishtirok etish ham qo'shilganligi hisobiga bu ko'rinishdagi testdan muvaffaqiyatli o'tish kompyuterlar uchun qiyinchilik tug'dirmoqda. Lekin ayrim mutaxassislar

Alan Turing 1950-yilda yozgan maqolasida nazarda tutgan test shakli audio talabga asoslanmaganligini ta'kidlab "Mutloq Turing test" komputerlarning texnik-falsafiy bo'lgan intellektualligi emas balki texnik bo'lgan audio sozlik masalasini tekshirishi shu sababli haqiqiy Turing maqsadidan uzoqlashilgani g'oyasini ilgari surmoqdalar.[7]

"Turing testi"da sinab ko'rilgan birinchi elektron chatbot 1966 -yilda MIT professori tomonidan yaratilgan ELIZA hisoblanib uning testdagi natijasi 22 % ni tashkil etgan.[8] Keyinchalik PARRY(1972), ALICE (1995), Mitsuki (2005) kabi chatbotlar ham "Turing testi"da sinab ko'rib turli natijalar ko'rsatgan bo'lsada 50% lik ko'rsatkichni qayd eta olmaganlar. Faqatgina OpenAI kompaniyasi tomonidan eng so'nggi SI texnologiyalari asosida yaratilgan GPT-3.5 sun'iy intellekt modeli "Turing testi" 50%, GPT-4 modeli esa 54% lik natija qayt etgani holda eng yuqori natija ko'rsatdilar. [8] Haqiqiy insonning "Turing test"idagi ko'rsatkichi 67% ekanligi fakti esa GPT sun'iy intellekti natijalari ahamiyatini yanada oshiradi.

Lekin bu "taqlid"ning haqiqiyliги postmodern falsafada Bodriar nazariyasi tomonidan ko'rib chiqilganida simulyatsiya sifatida talqin qilinadi. Ya'ni, sun'iy intellekt tomonidan namoyon etilayotgan ong tashqi ko'rinishda inson tafakkuriga o'xshash bo'lsa-da, u asl onging ontologik mohiyatini emas, balki uning belgilarini, funksional xatti-harakatlarini va kommunikativ shakllarini takrorlaydi. Bodriarga ko'ra, bunday holatda simulyakr endi real ongni aks ettirmaydi, balki chinlik o'rnini egallagan yangi "giperreallik"ni yuzaga keltiradi. Natijada, raqamli ong inson ongining nusxasi sifatida emas, balki undan mustaqil bo'lgan, ammo ijtimoiy muloqot jarayonida chin ong sifatida qabul qilinayotgan fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ong, sub'ektivlik va shaxsiyat tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, "inson nima?" degan fundamental savolni yangi texnologik-falsafiy kontekstda qo'yishni taqozo etadi.

Turing testining muvaffaqiyatli natijalari ongni substansial hodisa sifatida emas, balki funksional jarayonlar majmui sifatida talqin qilish imkonini beradi. Aynan ushbu yondashuv ongni biologik tashuvchidan ajratib, uni raqamli muhitga ko'chirish mumkinligi haqidagi ong yuklash falsafasining nazariy asosini shakllantiradi. Agar inson ongini funksional jarayonlar majmui sifatida tushunsak, u holda xotira, tafakkur va shaxsiy tajribalarni raqamli muhitga ko'chirish nazariy jihatdan mumkin bo'lib ko'rinadi. Biroq bu jarayonda yuzaga keladigan raqamli ong insonning o'zi bo'ladimi yoki uning faqat nusxasi bo'ladimi, degan savol ochiq qoladi. Bu masala shaxsiy identiklik va "men" tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Alan Turing tomonidan taklif etilgan yondashuvda mashinaning fikrlashi uning ichki holatlari orqali emas, balki tashqi xatti-harakatlari orqali baholanadi. Turing testi mashinaning inson bilan muloqot jarayonida insonnikiga o'xshash javoblar bera olish qobiliyatini mezon sifatida oladi. Ushbu yondashuv ongni funksional jarayonlar majmui sifatida ko'rishga imkon

beradi va hisoblash tizimlari orqali intellektual faoliyatni modellashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Biroq bu yondashuv mashinaning haqiqatan ham ongga ega yoki emasligi masalasini ochiq qoldiradi.

Mazkur masala David Chalmers tomonidan ishlab chiqilgan ong falsafasi doirasida yanada chuqurroq tahlil qilinadi. Chalmers ong muammosini ikki darajaga ajratadi: "oson muammolar" va "murakkab muammo".[9] Oson muammolar ongning funksional jihatlari bilan bog'liq bo'lib, ularga axborotni qayta ishlash, xotira, til, o'rganish va muloqot kabi jarayonlar kiradi. Aynan ushbu jihatlari Turing testi orqali baholanadi. Murakkab muammo esa subyektiv tajriba, ya'ni "his qilish" holatining o'zi bilan bog'liq bo'lib, u faqat tashqi xatti-harakatlarni kuzatish orqali aniqlanmaydi.

Chalmersga ko'ra, mashina yoki raqamli tizim inson kabi javob berishi, muloqot qilishi va o'zini anglatayotgandek ko'rinishi uning ongga ega ekanligini to'liq isbotlamaydi. Shu sababli Turing testi mashinaning intellektual funksiyalarini baholash uchun yetarli bo'lsa-da, uning ongga egaligi masalasida yakuniy mezon bo'la olmaydi. Bu holat sun'iy intellekt va ong yuklash falsafasida muhim nazariy bo'shliqni yuzaga keltiradi

Bundan tashqari, ong yuklash g'oyasi inson hayoti, o'lim va abadiylik haqidagi an'anaviy tasavvurlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Agar ong raqamli shaklda davom etishi mumkin bo'lsa, biologik tananing yo'qolishi inson mavjudligining yakuni bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savol paydo bo'ladi.[10] Shu bilan birga, raqamli ongning axloqiy maqomi, huquqlari va jamiyatdagi o'rni masalalari ham dolzarb bo'lib qoladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, Turing tomonidan boshlangan fikrlovchi mashinalar haqidagi muhokama bugungi kunda sun'iy intellekt, ong yuklash va raqamli inson tushunchalari orqali yanada kengayib bormoqda. Bu jarayon texnologik rivojlanish bilan bir qatorda falsafaning inson mohiyati, ong va mas'uliyat haqidagi savollarini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Turing testi va ong yuklash falsafasi kontekstida fikrlovchi mashinalar va raqamli intellekt tadqiq etilishi ongning funksional jarayonlari va subyektiv tajribasi o'rtasidagi farqni chuqur o'rganish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mashina intellekti va inson ongini birgalikda tahlil qilish falsafiy va texnologik tadqiqotlarda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ongni raqamli muhitga ko'chirish (mind uploading) fenomeni faqat funksional jihatlari orqali talqin qilinsa, u inson ongining to'liq ontologik davomi sifatida emas, balki uning funksional nusxasi sifatida qaraladi. Shu sababli, raqamli ongning axloqiy maqomi, huquqlari va jamiyatdagi roli falsafiy jihatdan alohida o'rganilishi zarur.

Turing testi mashinaning intellektual funksiyalarini baholashda samarali bo'lsa-da, subyektiv tajriba va qualia masalalarini hal qila olmaydi. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt va ong yuklash falsafasi doirasida yangi metodologik yondashuvlar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ongni funksional jarayonlar majmui sifatida tushunish Turing testining metodologik asoslarini mustahkamlash bilan birga, raqamli ong va shaxsiy identiklik masalalarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu sababli, kelajakda ushbu masalalarni ijtimoiy, axloqiy va texnologik kontekstda chuqur tahlil qilish zarur.

Sun'iy intellekt va raqamli ong tadqiqotlarida xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkin: Turing testi va Chalmersning ong muammolari konsepsiyasi birgalikda qo'llanilganda, ongni funksional va subyektiv jihatlari orasidagi murakkab bog'liqlikni tushunish uchun samarali nazariy maydon yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hodges, Andrew. Alan Turing: The Enigma. Princeton, NJ: Princeton University Press, 2014.
2. Singh, Simon. The Code Book: The Science of Secrecy from Ancient Egypt to Quantum Cryptography. New York: Anchor Books, 1999.
3. Erskine, Ralph. "Naval Enigma: The Breaking of Heimisch and Triton." In Action This Day: Bletchley Park from Groundbreaking Research to Breaking the Enigma Code, edited by Ralph Erskine and Michael Smith, 120–142. London: Bantam Press, 2001.
4. Copeland, B. Jack, ed. The Essential Turing. Oxford: Oxford University Press, 2004.
5. Welchman, Gordon. The Hut Six Story: Breaking the Enigma Codes. Clevedon: M&M Baldwin, 1997.
6. Turing, A. M. "Computing Machinery and Intelligence." Mind 59, no. 236 (1950): 433–460.
7. Powers, David M. W. "The Total Turing Test and the Loebner Prize." In Proceedings of the Joint Conference on New Methods in Language Processing and Computational Natural Language Learning (NeMLaP/CoNLL 1998), edited by David M. W. Powers, 279–280. Sydney: Association for Computational Linguistics, 1998.
8. Jones, Cameron R., and Benjamin K. Bergen. "People Cannot Distinguish GPT-4 from a Human in a Turing Test." In Proceedings of the 2024 ACM Conference on Fairness, Accountability, and Transparency (FAccT '25), 1615–1639. New York, NY: Association for Computing Machinery, 2024.
9. Chalmers, David J. The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. New York: Oxford University Press, 1996.

10. Chalmers, David J. "The Singularity: A Philosophical Analysis." *Journal of Consciousness Studies* 17, no. 9–10 (2010): 7–65.